“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=341

2025-yil
5-son
dekabr
ISSN 3093-8546



Sud xarajatlari institutini takomillashtirish masalalari: milliy va xorijiy tajriba

Nargiza Sulaymonova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquq kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: n.sulaymonova@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada fuqarolik sudlarida davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlarni undirishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan bo‘lib, aynan milliy tajriba va xorij tajribasini taqqoslash orqali sud xarajatlari undirishda uchraydigan o‘xshashlik va farqlar, amaliyotdagi kamchiliklar va amaldagi qonunchilikka kiritilishi lozim bo‘lgan o‘zgartirishlar to‘g‘risida tahlil qilingan.

Калит сўзлар. davlat boji, fuqarolik sudlari, davlat bojidan ozod qilingan shaxslar, da’vo bahosi, davlat bojini qaytarish

Аннотация. В данной статье освещаются особенности взыскания государственной пошлины и судебных расходов, связанных с рассмотрением дел в гражданских судах. Путём сопоставления национального и зарубежного опыта проанализированы сходства и различия, возникающие при взыскании судебных расходов, выявлены недостатки правоприменительной практики, а также рассмотрены изменения, которые целесообразно внести в действующее законодательство.

Ключевые слова. государственная пошлина, гражданские суды, лица, освобождённые от уплаты государственной пошлины, цена иска, возврат государственной пошлины

Annotation. This article examines the specific features of collecting state duties and litigation-related expenses in civil courts. Through a comparative analysis of national and foreign experience, the study identifies similarities and differences in the recovery of court costs, highlights shortcomings in judicial practice, and analyzes the amendments that should be introduced into the current legislation.

Keywords. state duty, civil courts, persons exempt from state duty, claim value, refund of state duty

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Respublikamiz hududida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu normani Konstitutsiyamizning 130-moddasi hamda “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasidan ham bilib olishimiz mumkin. Odil sudlovni to‘liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta’minlash uchun ham sudlarning faoliyatini moliyalashtirish zarur va bu moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi budjetidan amalga oshirilishi Konstitutsiyamizning 140-moddasi hamda “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning 90-moddasida ham belgilangan. Shuning uchun ham sud xarajatlari instituti sud huquq tizimining asosiy institutlaridan biri hamda ushbu tizim faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining asosiy tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kunda milliy qonunchiligimizda sud xarajatlarining qonuniy ta’rifi mavjud emas. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunida hamda Oliy sudi plenumining 2024-yil 16-dekabrdagi “Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida ham sud xarajatlarining aynan ta’rifi berilmagan bo‘lib, bu faqat **davlat boji** va **ishni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq sud chiqimlari**dan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Albatta, odil sudlovni amalga oshirish muhim moddiy yordamni talab qiladi, uni davlat va ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Lekin yuqorida aytib o‘tilganidek, odil sudlovni amalga oshirish, birinchi navbatda, davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, odil sudlovni amalga oshirish davlat tomonidan moliyalashtirishni talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Shuning uchun ham odil sudlovni amalga oshirishda davlat tomonidan sarflanadigan mablag‘larning muayyan qismi ishda manfaatdor bo‘lgan shaxslar tomonidan to‘lanadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sud xarajatlarining joriy etilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad davlatning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash emas, aksincha, sudlarda asossiz nizolar qo‘zg‘atilishining oldini olish hisoblanadi. Yuqorida sud xarajatlari institutining sud huquq tizimidagi o‘rnini muhokama qildik, endi uning turlarini mamlakatimiz misolida to‘liq tahlil qilib chiqamiz.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, sud xarajatlari davlat boji va ishni ko‘rib chiqish bilan bog‘liq chiqimlardan iborat bo‘ladi. Demak, davlat bojini tahlil qilishdan boshlaymiz. **Davlat boji** – yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to‘lovdir. Odil sudlovni amalga oshirish bevosita davlat budjeti hisobidan ta’minlanadi, bunda sudlarga murojaat qilishda undiriladigan davlat boji to‘lovlari davlat budjetining muayyan qismini tashkil qilganligi bois davlat bojini to‘g‘ri belgilash va vaqtida undirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat bojini to‘lash asoslari va tartibi, uni to‘lashdan ozod qilish, davlat bojini qaytarish tartibi “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonuni hamda Fuqarolik

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

protsessual kodeksi normalari bilan tartibga solinadi.

Ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga to‘lanishi lozim
bo‘lgan summalar;

2) joyida ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;

3) ushbu kodeksning 165-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgarni
qidirish uchun qilingan xarajatlar;

31) sud xabarnomalarini va sud hujjatlarini yuborish bilan bog‘liq pochta
xarajatlari;

4) sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish bilan bog‘liq
xarajatlar;

5) sud tomonidan tan olingan boshqa zarur xarajatlar.

Pochta xarajatlarining summasi sud tomonidan belgilanadi, biroq bu summa bazaviy hisoblash miqdorining o‘ndan bir qismidan oshmasligi kerak va sudning depozit hisobvarag‘iga kiritilishi lozim.

Respublikamiz sud tizimida amal qilayotgan sud xarajatlarini xorijiy mamlakatlarda amal qilayotgan sud xarajatlari bilan solishtirib tahlil qilamiz. Bunga misol qilib, Germaniya va Yaponiya davlatlarini tanladim. Germaniyada sud xarajatlari optimallashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar boshqa mamlakatlarga ibrat bo‘lishi mumkin. Bular orasida elektron sudlov tizimlarini keng joriy etish, sud jarayonlarini avtomatlashtirish va sud qarorlarini tezkor qabul qilish mexanizmlarini misol qilish mumkin. Germaniyada sud xarajatlarini undirish bilan bog‘liq juda qat’i tizim va talablar mavjud. Elektron sud tizimlarining joriy etilishi sud jarayonlarini tezkor va shaffof bo‘lishini hamda qog‘ozbozlik va bir qator rasmiyatchiliklarni oldini olishga sabab bo‘ladi. Yaponiyada esa, sud jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish orqali sud xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan yondashuvni tanlagan. Yaponiyada sud tizimida kichik da’volarni ko‘rib chiqish uchun maxsus tezkor sudlar tashkil etilgan, bu esa umumiy sud xarajatlarini pasaytirishga yordam beradi. Bu kabi maxsus tezkor sudlar kichik da’volarni ko‘rib chiqishi nafaqat umumiy sud xarajatlarini pasaytiribgina qolmay, balki sudlarning asosiy ish hajmini murakkab, muammoli hamda vaqt talab qiladigan da’volarga qaratgan. Aksari rivojlangan mamlakatlarda sud xarajatlari ba’zi hollarda shunchalik yuqori bo‘lishi mumkinki, o‘rtacha daromadga ega fuqarolar uchun advokat yollash va sud jarayonlarida ishtirok etish deyarli imkonsizga aylanadi. Bu esa jamiyatdagi adolat tizimiga bo‘lgan ishonchni susaytiradi va ijtimoiy adolatsizlik hissiyotlarini kuchaytiradi. Germaniya va Yaponiya davlatlari ham bundan mustasno emas, ikkala davlatda ham sud xarajatlari juda qimmat hisoblanadi. Bir tarafdan sud xarajatlari qimmat bo‘lishining ham

ijobiy va salbiy taraflari mavjud. Masalan, sud xarajatlarining qimmat bo‘lishi sudlarga asossiz murojaatlar kelib tushishining oldini olishi mumkin. Bu esa sudda ko‘rib chiqiladigan murojaatlarning son jihatdan kamayishiga va sifat jihatdan sezilarli o‘sishiga olib keladi. Boshqa tarafdan olib qaraydigan bo‘lsak, fuqarolarning sudlarga murojaat qilish bilan bog‘liq siyosiy huquqini cheklab qo‘ygan bo‘lamiz.

Endi mamlakatimiz sud tizimida sud xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan **muammolar** va ularga **yechim**ni tahlil qilib o‘tamiz. Fuqarolik protsessual kodeksining 129-moddasida da’voning bahosi aynan belgilab o‘tilgan:

1) pul undirish to‘g‘risidagi da'volar bo‘yicha — undiriladigan summaga qarab;

2) mol-mulkni talab qilib olish to‘g‘risidagi da'volar bo‘yicha — talab qilinayotgan mol-mulkning qiymatiga qarab;

3) bir nechta mustaqil talabdan iborat da'volar bo‘yicha — barcha talablarning umumiy summasiga qarab;

4) aliment undirish to‘g‘risidagi da'volar bo‘yicha — bir yillik to‘lovlarning yig‘indisiga qarab;

5) muddatli to‘lovlar va pul berish to‘g‘risidagi da'volar bo‘yicha — to‘lovlarning yoki beriladigan pullarning yig‘indisiga, lekin ko‘pi bilan uch yillik yig‘indisiga qarab;

6) muddatsiz yoki umrbod to‘lovlar va pul berish to‘g‘risidagi da'volar bo‘yicha — to‘lovlarning yoki pullarning uch yil ichidagi yig‘indisiga qarab;

7) to‘lovlarni yoki pul berishni kamaytirish yoxud ko‘paytirish to‘g‘risidagi da'volar bo‘yicha — to‘lovlar yoki beriladigan pullar kamaytiriladigan yoki ko‘paytiriladigan summaga, lekin ko‘pi bilan bir yillik summaga qarab;

8) to‘lovlarni yoki pul berishni to‘xtatish to‘g‘risidagi da'volar bo‘yicha — qolgan to‘lovlar yoki pullar yig‘indisiga, lekin ko‘pi bilan bir yillik yig‘indisiga qarab;

9) mol-mulk ijarasi shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish haqidagi da'volar bo‘yicha — shartnoma amal qilishining qolgan muddatida mulkdan foydalanish uchun to‘lanadigan to‘lovlarning yig‘indisiga, lekin ko‘pi bilan uch yil ichidagi to‘lovlarning yig‘indisiga qarab;

10) xususiy mulk huquqi asosida fuqarolarga tegishli imoratlarga egalik huquqi to‘g‘risidagi da'volar bo‘yicha — imoratning bozor qiymatiga qarab, lekin bu miqdor kadastr qiymatidan, bunday baho bo‘lmaganida esa, majburiy sug‘urta bahosidan kam bo‘lmasligi kerak, tashkilotlarga qarashli imoratlar bo‘yicha esa — imoratlarning haqiqiy bahosidan kam bo‘lmasligi kerak.

Ammo, ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlarning aniq doirasi va minimal miqdori belgilanmagan. Agar, ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlarning minimal miqdori hamda doirasini da’voning bahosi kabi aniq belgilab qo‘yilsa hamda u taraflar uchun manfaatli va adolatli bo‘ladigan bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Sud tizimida sud xarajatlari bilan bog‘liq ikkinchi muammo sifatida ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlar noto‘g‘ri undirilganda qaytarish masalasini e’tirof etsak bo‘ladi. “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunning 18-moddasida davlat bojini qaytarish tartibi muhokama qilingan. Davlat boji quyidagi hollarda to‘liq yoki qisman qaytarilishi kerak:

1) davlat boji qonunchilikda talab qilinganidan ortiqcha miqdorda to‘langanida;

2) sud da'vo arizasini (arizani, shikoyatni) qaytarganda yoki qabul qilishni rad etganda, shuningdek notarius notarial harakatlarni amalga oshirishni rad etganda;

3) apellyatsiya, kassatsiya va taftish shikoyati qaytarilganda yoki uni qabul qilish rad etilganda;

4) davlat boji to‘langan da'vo arizasi (ariza, shikoyat) yoki apellyatsiya, kassatsiya va taftish shikoyati sudga kelib tushmaganda;

5) agar ish sudga taalluqli bo‘lmasa, ishni yuritish tugatilganda, bundan ish taalluqliligiga ko‘ra boshqa sudga ko‘rib chiqish uchun o‘tkazilgan hollar mustasno;

6) ariza ko‘rmasdan qoldirilganda, agar u muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;

7) sudning yoki hakamlik sudining ish yurituvida ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo‘lsa, ariza ko‘rmasdan qoldirilganda;

8) agar taraflar o‘rtasida nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish to‘g‘risida hakamlik bitimi tuzilgan bo‘lsa, ariza ko‘rmasdan qoldirilganda;

9) agar taraflar o‘rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo‘lsa, ariza ko‘rmasdan qoldirilganda;

10) ishda ishtirok etgan shaxs vafot etganida, agar nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ymasa;

11) da'vogar nizoni sudga qadar hal etish (e'tiroz bildirish) tartibiga rioya etmaganda, agar bu hol qonunda ushbu toifadagi nizolar uchun yoki taraflarning shartnomasida nazarda tutilgan hamda bunday hal etish imkoniyati boy berilgan bo‘lsa;

12) voyaga yetmagan bolalari bo‘lmagan er-xotinning nikohi o‘zaro rozilik asosida bekor qilinganligini qayd etish uchun davlat boji to‘langanda, agar erxotinning yarashishi yoki ulardan birining sudga kelmaganligi tufayli nikohni bekor qilish amalga oshirilmagan bo‘lsa;

13) agar ishda ishtirok etayotgan yuridik shaxs tugatilgan bo‘lsa;

14) sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizani qabul qilish rad etilganda;

15) O‘zbekiston Respublikasining fuqarolariga va O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga xorijga chiqish huquqi uchun hujjat berish rad etilganda.

Ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlar noto‘g‘ri unirilganda chiqimlarning qaytarish masalasi ham yo‘lga qo‘yilsa, sud xarajatlarining shaffofligi va hisobdorligini oshirishga yordam

beradi. Sud tizimidagi bu muammolarni hal etish orqali fuqarolarning sud jarayonlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlarning minimal miqdori aniq belgilanishi hamda ular noto‘g‘ri undirilganda qaytarish masalasi kabi muammolar va ularga yechim deb topgan masalalarimni aytib o‘tdim. Agar berilgan takliflar amaliyotda qo‘llash uchun qonun normalariga kiritilsa, sud xarajatlarini undirish bilan bog‘liq ayrim muammolar bartaraf qilinar edi hamda sudlar tomonidan sud xarajatlarini undirishda bir xillik ta’minlanar edi.

Undan tashqari, yuqorida Yaponiyada kichik da’volarni ko‘rib chiqish uchun maxsus tezkor sudlar yo‘lga qo‘yilganligini va uning ijobiy va salbiy taraflarini muhokama qilib chiqdik. Bu kabi maxsus tezkor sudlar respublikamiz sud tizimida ham yo‘lga qo‘yilsa, umumiy sudlarning ish hajmi, asosan, vaqt talab qiladigan murakkab va muammoli vaziyatlarga qaratilar edi. Davlatlar bir-birlarining eng yaxshi amaliyotlaridan o‘rganish, tajriba almashinuv orqali yangi g‘oyalarni joriy etish va muammolarga qarshi kurashishda birgalikda ishlash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Bu esa global miqyosda adolatli sudlov tizimlarini rivojlantirish va har bir fuqaro uchun adolatga erishish imkoniyatlarini oshirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. www.lex.uz Fuqarolik protsessual kodeksi;
3. www.lex.uz “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun;
4. www.oriens.uz Sudyalar Oliy maktabi mustaqil izlanuvchisi Babajanov Farrux Qadamboevichning “Xalqaro tajribada sud xarajatlarini takomillashtirish” mavzusidagi maqolasi;
5. www.lex.uz Oliy sudi plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi 14-sonli “Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori;
6. www.inscience.uz Nargiza Sulaymonova “Fuqarolik sudlari tomonidan davlat bojlarini undirishda yuzaga kelayotgan muammolar” mavzusidagi maqolasi.